

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI

**“KORPORATIV BOSHQARUV”
KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK:658:339.13.024(575.1)

SAIDQULOV AVAZBEK BOTIRQUL O‘G‘LI

**KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI DAVLAT TOMONIDAN
TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**70411601 – Korporativ boshqaruv
mutaxassisligi bo‘yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTASIYA




Ilmiy rahbar:

I.f.n., dots. B. Urinov

TOSHKENT – 2024

Magistrlik dissertatsiya ishi Korporativ boshqaruv kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

32 -sonli bayonnoma " 5 " 04 2024 y.

Kafedra mudiri:	B.N. Urinov		<u>29.05</u>
		imzo	sana
Ilmiy rahbar:	<u>B. Urinov</u>		<u>29.05</u>
	F.I.Sh.	imzo	sana
Magistr:	<u>S. Saidgules</u>		<u>29.05</u>
	F.I.Sh.	imzo	sana

Dissertatsiya "Biznes boshqaruvi" fakultetida 2024 yil " _____ " _____
№ _____ raqami bilan ro'yxatga olingan.

Annotatsiya

Korporativ boshqaruv tizimini davlat tomonidan vakolatli davlat idoralari tomonidan tartibga solinishini takomillashtirish maqsadida mamlakat miqyosida iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda ular faoliyatining asosiy mezonlaridan biri bo'lgan tartibga solish mexanizmi dolzarb mavzulardan biridir. Jahon amaliyotida strategik muhim ahamiyatga ega tarmoq korxonalarining boshqaruvida va jamiyat farovonligi uchun zarur bo'lgan soxalarda korporativ boshqaruv tizimining faoliyati samaradorloigini oshirish, boshqaruv amaliyotida xalqaro nufuzli tashkilotlar tamoyillarining joriy qilinish, davlat va tijorat korxonalarini o'rtasida samarali normative huquqiy bazani shakllantirish ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Shu sababli ham magistrlik dissertatsiyasi tadqiqoti davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib borildi. Xususan, mavzuga oid boshqa ilmiy-tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlari o'rganildi, adabiyotlar sharhi amalga oshirildi. Magistrlik dissertatsiya ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, "O'zbekgidroenergo" AJ va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda korporativ boshqaruv tizimi qay darajada yo'lga qo'yilganligi, nazorat qilinishi yillik o'zgarishlari dinamikasi qay darajada amalga oshirilayotganligini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish orqali o'rganildi. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini davlat tomonidan tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tayanch iboralar: *Davlat ishtirokidagi korxonalar, davlat korxonasi, fond bozori, qimmatli gog'ozlar, aksiya, obligatsiya, bank, aksiyadorlar, korporativ boshqaruv, vakolatli davlat organlari, dividend, dividend siyosati, muqobil savdo tizimlari, o'z-o'zini boshqarish organlari.*

Summary

The regulation mechanism, which is one of the main criteria of their activity, is one of the topical issues at the time when economic reforms are being implemented at the country level in order to improve the regulation of the corporate governance system by the competent state agencies. To increase the effectiveness of the corporate governance system in the management of strategically important enterprises in world practice and in the fields necessary for the well-being of society, to introduce the principles of international influential organizations in management practice, to form an effective normative legal framework between state and commercial enterprises, to conduct scientific research requires.

For this reason, during the research of the master's thesis, detailed work was carried out within the scope of the topic. In particular, other scientific-research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and regulatory and legal documents of the Republic of Uzbekistan on the topic were studied, literature review was carried out. In order to increase the practical significance of the Master's thesis, by analyzing the extent to which the corroborative management system has been implemented in JSC "Uzbekgidroenergo" and its constituent organizations, and to what extent the dynamics of annual changes are being controlled, on the basis of statistical data was studied. On the basis of the studied and analyzed information, scientific and practical conclusions, proposals and recommendations related to the state regulation of the corporate management system in joint-stock companies were developed.

Key words: *State-owned enterprise, stock market, stock, bond, bank, shareholders, corporate governance, authorized state bodies, dividend, dividend policy, Regulatory Agencies, self-governing bodies.*

MUNDARIJA

Annotatsiya	2
Summary	3
MUNDARIJA	4
Keltirilgan jadvallar ro'yhati	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	6
Keltirilgan qisqartmalar	6
I BOB. KIRISH	7
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.	8
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	9
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.	10
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti.	11
1.5. Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.	11
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.	12
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	13
2.1. Kirish.....	13
2.2. Korporativ boshqaruv tizimini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy uslubiy asoslari.....	13
2.3. Korporativ boshqaruv tizimini davlat tomonidan tartibga solishga oid me'yoriy -huquqiy hujjatlar sharhi	18
2.4. Xulosa	22
III BOB. METODOLOGIYA	23
3.1. Tadqiqot dizayni	23
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	23
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.	23
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	24
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning echimi.....	24
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	25
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	26
4.1. «O'zbekgidroenergo» AJ faoliyat umumiy tavsifi	26
4.2 «O'zbekgidroenergo» AJ ichki tashkiliy tuzilmasi va korporativ boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari	35

4.3 Korporativ boshqaruv tizimida xalqaro tajriba. Shvetsariya Rossiya tajribasi	45
4.4 O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini davlat tomonidan tartibga solinishi. Institutsional organlarining roli, nazorat qilish mexanizmlari	59
4.5. Tahlillardan olingan natijalar sharhi	63
V BOB. XULOSA	65
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	65
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	67
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	72

I BOB. KIRISH

Davlat korxonalari — davlat korxonalari jahon mamlakatlarida investitsiyalarning 20 foizini, bandlikning 5 foizini va ichki mahsulotning 40 foizigacha qismini tashkil qiladi¹.

Davlat korxonalari asosiy iqtisodiy tarmoqlarda, jumladan, kommunal xizmatlar, moliya va tabiiy resurslarda muhim xizmatlarni taqdim etadilar. Ko'pgina mamlakatlarda yirik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari davlat qo'lida qolmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasi keskin qisqarib borishiga qaramasdan, butunlay barham topmaydi. Ya'ni bozor iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda ham iqtisodiyotning ma'lum bir soha va tarmoqlarida davlat o'z ulushini saqlab qolganligiga bugungi kunda ham guvoh bo'lmoqdamiz. Umumiy olganda korporativ boshqaruv modellari xususiyatlari, mamlakatlarning rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotda davlat ulushi darajasi xorijiy davlatlarda turlicha ekanligini ham shu o'rinda qayd etib o'tish lozim. Har bir davlatning korporativ tuzilmalardagi ulushi darajasi ko'p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatish zarurati bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi. Bunda albatta ma'lum bir maqsadlar belgilab olinadi. Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv amaliyoti xususiy korporativ tuzilmalardagi korporativ boshqaruv amaliyotidan ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Yuqoridagilar asosida quyida davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv xususiyatlari, davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtirokidan asosiy maqsadi va vazifalari, mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida davlat ishtiroki tahlilini ko'rib chiqamiz.

Shuni ham qayd etib o'tish joizki, Mamlakatimizda Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratishning asosiy ustuvor yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11

¹ <https://www.ifc.org/content/dam/ifc/doc/mgrt-pub/soe-fact-sheet-july2018.pdf>